

BMTning O'zbekistondagi loyihalari doimiy muvofiqlashtiruvchisi bilan uchrashuv

2020-yil 12-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Narbayeva BMTning O'zbekistondagi loyihalari doimiy muvofiqlashtiruvchisi Xelena Frayzer bilan uchrashdi.



O'zbekiston va BMT o'rtasida Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish masalalarida hamkorlik qilish muhokamaning asosiy mavzusi bo'ldi. Jumladan, BMTni targ'ib qilishda parlamentning roli haqida so'z borganda Tanzila Narbayeva mamlakatimizda joriy yildan boshlab BMTning 17 ta barqaror rivojlanish maqsadiga erishish ustidan kuchli parlament nazorati o'rnatilishini, shu tufayli parlamentda hukumat a'zolarining ushbu masala yuzasidan tegishli hisobotlarini eshitish amaliyoti joriy etilishini ta'kidladi.

Shuningdek, uchrashuvda gender masalalar bo'yicha hamkorlik qilishning turli jihatlari muhokama etildi. Jumladan, 2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi loyihasi haqida so'z bordi. Ushbu Strategiyaning BMT ekspertlari tomonidan baholanishi zarurligi ta'kidlandi.



O'zbekistonda BMTning 75 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazish masalalari ham muhokama etildi. Shu nuqtai nazardan BMT tuzilmalari jahonning barcha mamlakatlarida bo'lgani kabi respublikamizda ham o'zbekistonliklar o'z kelajagini qanday ko'rishni istashi va bunda BMT qanday rol o'ynashi haqida so'rov o'tkazishni rejalashtirayotgani qayd etildi.

Manba